



Murod RAXMATOV,
Navoiy davlat universiteti dotsenti, PhD
E-mail: raxmatov.80@bk.ru

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori, t.f.d O.Rashidov taqrizi asosida

AHMAD ZAKI VALIDI – THE IDEOLOGICAL LEADER OF THE INDEPENDENCE MOVEMENT IN TURKESTAN

Annotation

This article discusses the actions of Ahmad Zaki Validi as the ideological leader of the independence movement in Turkestan based on scientific foundations.

Key words: Autonomy, Soviet, emigrant, press, faction, phenomenon, independence, communist, congress, agent, government, archive, army.

АХМАД ЗАКИ ВАЛИДИ – ИДЕЙНЫЙ ЛИДЕР ДВИЖЕНИЯ ЗА НЕЗАВИСИМОСТЬ В ТУРКЕСТАНЕ

Аннотация

В статье на научной основе рассматриваются действия Ахмада Заки Валиди как идейного лидера движения за независимость в Туркестане.

Ключевые слова: Автономия, советский, иммигрант, пресса, фракция, явление, независимость, коммунист, конгресс, агент, правительство, архив, армия.

AHMAD ZAKI VALIDIY – TURKISTONDAGI ISTIQLOLCHILIK HARAKATINING G'OYAVIY RAHNAMESI

Annotatsiya

Mazkur maqolada Ahmad Zaki Validiyning Turkistondagi istiqlolchilik harakatining g'oyaviy rahnamosi sifatida qilgan harakatlari ilmiy asoslar asosida yoritilgan.

Kalit so'zlar: Muxtoriyat, sovet, muhojir, matbuot, firqa, fenomen, istiqlo, kommunist, kongress, agent, hukumat, arxiv, armiya.

Kirish. Turkiy xalqlarning milliy mustaqilligi uchun kurashida Ahmad Zaki Validiyning hisssasi katta bo'lgan. Validiyning Turkistondagi siyosiy faoliyati ikki davrdan iborat. Birinchisi, 1917-yil aprel-oktabr oylari oralig'ida bo'lib, bu paytda u Toshkentda yashadi hamda Turkistondagi muxtoriyatchilik harakatida faol qatnashdi. Ikkinchisi, 1920-1923 yillarni o'z ichiga olib, Validiy avval BXSР poytaxti Buxoroda yarim-yashirin holatda yashadi, so'ngra Buxoro, Karmana, Samarqand, Jizzax, Toshkent hududlarida bo'lib, Turkistondagi istiqlolchilik harakatining g'oyaviy rahnamolaridan biriga aylandi.

Maxfiy hujjatlarda keltirilishicha, 1920-yil may oyida Moskvada Validiy boshchiligidagi boshqird delegatsiyasi bilan T. Risqulov rahbarligidagi Turkiston respublikasi delegatsiyasi o'rtasida o'zaro muloqotlar bo'lib, sovet rejimiga qarshi birgalikda kurashish uchun kelishib olindi hamda Turkiston va Boshqirdiston respublikalarida yashovchi turkiy xalqlarga qarata murojaatnoma qabul qilindi. Murojaatnoma Moskvada arab imlosida turkiy tilda nashr qilinib, Turkistonga olib kelingan[1]. Ma'lumki, bu paytda Turkistonda sovet rejimiga qarshi eng shiddatli janglar ketayotgan edi. Validiy Boku va Turkmaniston hamda Xorazm orqali 1920-yil dekabrda Buxoroga yetib keldi. Validiy 1921-yil noyabr oyigacha Buxoro shahrida yashab, so'ngra Samarqand viloyati va Toshkent vohasini kezib, Turkiston, Buxoro va Xorazm respublikalaridagi barcha qo'zg'olonchilar guruhlarini birlashtira oladigan va qurolli harakatga g'oyaviy jihatdan rahbarlik qiladigan yagona markaz tuzish uchun butun kuch-g'ayratini sarfladi. U Buxoro hukumatining rahbarlari Fayzulla Xo'jayev, Usmon Xo'ja, Abdulqodir Muhtidinov bilan o'z rejalari haqida maslahatlashadi. Validiy bu xususda 1921-yil oktabrda Buxoroga kelgan turkiyalik mashhur sarkarda Anvar Posho bilan ham bir necha bor suhbatlashgan edi[2].

Validiy Turkiston mintaqasidagi qurolli harakatning asosiy mafkurachilaridan biri sifatida bu harakatga nisbatan milliy rahbar xodimlar (milliy kommunistlar) tomonidan o'tkaziladigan siyosiy yo'lni belgilashda katta ish qildi. Fayzulla Xo'jayev, Anvar Posho, Validiy o'rtasida bo'lib o'tgan muloqotlar bunda muhim rol o'ynadi. Shu narsa xarakterli holki, keyinchalik taqdir taqozosi bilan uch turkiy xalqning bu uch buyuk namoyandasi

Turkiston ozodligi va birligi uchun kurashning turli qutblarida turib, bir-biridan farq qiladigan har xil vaziyatlar va alohida sharoitlarda faoliyat olib borishlariga to'g'ri keldi. Lekin bu katta uchlik faoliyatini yagona nuqtaga birlashtirib turgan g'oya, bu - ota yurt Turkiston mustaqilligi g'oyasi edi.

Validiy Buxoroda yashar ekan, jadidchilik g'oyalari bilan sug'orilgan siyosiy partiyalar tashkil qilish, ularning dasturi va rejasini tuzish bilan astoydil shug'ullandi. Validiy tomonidan 1921-yilda "Erk" partiyasining 9 banddan iborat va jadid taraqqiyparvarlari partiyasining 19 bandlik dasturlari ishlab chiqildi. Dasturdagi fikrlarning aksariyati hatto bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan.

Validiy keyinchalik o'zining "Xotiralar" kitobida yozishicha, 1921-yil 2-5 avgustda Buxoroda bo'lgan Milliy Birlik 1-kongressi (Moskvada 1917-1918 yillarda bo'lib o'tgan kongresslardan keyingi 5-yig'ilish)da O'rta Osiyo Milliy Musulmon Jamiyatlari Federatsiyasi - keyinchalik Turkiston Milliy Birligi (TMB) nomi bilan mashhur bo'lgan tashkilot tuzildi. Ancha davom etgan munozaralardan so'ng Validiy tashkilot Markaziy qo'mitasining raisi qilib saylandi. Munavvar Qori va Sadridin Ayniy nomzodlari turli sabablar bilan qo'mita raisligiga o'tmadi. Markaziy qo'mita tarkibiga Turkistonning nufuzli shaxslari kiritildi. Validiy rahbarligida 1921-yilda ishlab chiqilgan TMB Dasturi (Programmasi) ham Buxoroda o'tgan mazkur kongressda tasdiqlandi[3].

Turkiston Milliy Birligi tashkiloti bilan Munavvar Qori rahbarligidagi "Milliy Ittihad" tashkiloti o'zaro hamkorlikda faoliyat ko'rsatdi. Bu holni arxiv materiallari hamda xorijda nashr qilingan Validiy va Boymirza Hayitning kitoblari keltirilgan ayrim hujjatlar isbotlaydi. Har ikki tashkilotning asosiy maqsadi Buxoro respublikasi, umuman, Turkiston mintaqasini sovetlashtirish va ruslashtirish ta'siridan saqlab qolish, Turkistonning mustaqilligi (istiqloli)ga erishish edi. Buning uchun kurashning oshkora va yashirin usullaridan foydalanish ko'zda tutilgan. Tashkilot faoliyatida Fitrat, Cho'lpon, Otaulla Xo'jayev, Sa'dullaxo'ja Tursunxo'jayev (1891-1938), Mukammil Burhonov (1884-1938), Muinjon Aminov (1890-1938), Abdulqodir Muhtidinov, Hoji Safo Jo'raboyev, Salimxon Tillaxonov, Miyon Buzruk Solihov va boshqalar ham faol qatnashganlar. Fayzulla

Xo'jayev "Milliy Ittihad" tashkiloti faoliyatini yashirincha quvvatlab, uning a'zolariga doimiy ravishda moddiy va ma'naviy jihatdan madad berib turgan. Ba'zi ma'lumotlarga qaraganda, tashkilot faoliyatini Turor Risqulov va Yusuf Aliyev ham qo'llab-quvvatlab turishgan.

Turkiston Milliy Birligining 6-kongressi 1921-yil 5-7 sentabrda Samarqandda yarim yashirin holatda o'tkazildi. Samarqanddagi kongressda TMBning 24 banddan iborat Nizomi (Ustavi) va Turkiston Milliy bayrog'i qabul qilindi.

Samarqand kongressi Turkiston mintaqasidagi qurolli harakatni g'oyaviy jihatdan jipslashuviga katta xizmat qildi. Anjumanda butun Turkistondagi qo'rboshilar guruhlar bilan aloqani mustahkamlash va har bir qo'rboshining huzuriga siyosiy maslahatchilar yuborish to'g'risida qaror qabul qilindi[4].

Kongress tugagach, Validiy Farg'ona kurashchilari bilan aloqani mustahkamlash uchun SHermuhammadbek oldiga Xoris Iglikovni, Rahmonqul huzuriga Mustafo Shohqulini yubordi. 1920-yildayoq SHermuhammadbek huzuriga Boshqirdiston hukumatinin vakili Eldorxon Mutin jo'natilgan edi. Eldorxon bekning qo'shinida harbiy ishdan saboq berdi, qo'rboshilarga rus tilini o'rgatdi va asir olingan qizil askarlar qo'lidagi hujjatlarni ruschadan turkiy tilga tarjima qildi. Bundan tashqari 1921-yil oktabrda O'zgan tog'lariga - qirg'izlarning bosh qo'rboshisi Parpibek huzuriga boshqird Minhoj Cholni maxsus maktub bilan yuboradi. Validiy maktubda Parpibekka vaziyat murakkablashsa, Koshg'ar tomonga ketishni maslahat beradi[5]. Bu vakillar qurolli harakatni tashkiliy va g'oyaviy jihatdan jipslashuviga katta xizmat qilishdi.

Tahlil va natijalar. Ahmad Zaki Validiy qo'zg'olonchilar va ularning rahbarlari "elni talovchi, bosqinchi" emasliklarini, balki "o'z vataniga sodiq, fidoyi, dunyo ahvolidan voqif kishilar" ekanliklarini keyinchalik yozgan xotiralarda faqat birgina Samarqand viloyati qo'rboshilari misolida ham yaqqol ko'rsatib bergan edi[6].

Turkiston Milliy Birligining Toshkentda maxfiy ravishda o'tgan va 16 a'zo qatnashgan 7-kongressi (1922-yil 18-20 sentabr)da Validiyga Turkistonga qolmasdan yevropaga chiqib, Mustafo Cho'qay bilan birgalikda TMBni chet elda tuzishni vazifa qilib qo'ydi. Shunday qilib, Validiyning Turkistonda faoliyat ko'rsatgan ikkinchi davri (1920-1923) ham o'zining nihoyasiga yetdi. 1923-yil fevralda u Turkmaniston orqali Eronga o'tib ketdi. Biroq Validiy Turkiston mustaqilligi uchun kurashni xorijda ham izchil davom ettirdi.

Farg'ona vodiysidagi istiqlochlilik harakatini g'oyaviy jihatdan birlashtirishda mashhur qirg'iz vatanparvari, Turkiston MIK raisining sobiq o'rinbosari, Sirdaryo viloyatining Avliyo Ota (hozirgi Taroz) shahrida qirg'izlarning nufuzli solto urug'i aslzodasi xonadonida tug'ilgan To'raqul Jonuzoqov (1893-1921) muhim rol o'ynadi. Bu paytda Turkistonda Ahmad Zaki Validiyning eng yaqin yordamchisi To'raqul Jonuzoqov bo'lgan[7].

T.Jonuzoqov o'z felyetonida ayrimlar taxmin qilganidek, turli xalqlarni bir-biriga qarshi qo'yish bilan shug'ullanmagan. Aksincha, u sovet boshqaruv tizimining o'ziga xos xususiyatlarini va bolsheviklar hokimiyatining tadrijiy evolyutsiyasini ochib tashlagan.

T.Jonuzoqov faqat qo'zg'olonchilar o'rtasida ish olib bormasdan, Kanayev taxallusi bilan qizil armiya jangchilari orasida ham bo'lib, ularga qurolli muxolifat harakatining asl mohiyatini tushuntirdi. Uning tashviqotidan keyin ko'plab rus ofitser va askarlari o'zlari mansub bo'lgan qizil armiyani tashlab ketdi, ayrimlari esa qo'zg'olonchilar safiga borib qo'shildi.

T.Jonuzoqovning bunday faoliyati bolshevik rahbarlarning g'azabini keltiradi. Masalan, Turkiston Kompartiyasi MK mas'ul kotibi Nazir To'raqulov 1921-yil avgustda TKP VI syezdidagi qilgan "Farg'ona muammosi" nomli ma'ruzasida bu holni quyidagicha ta'kidlaydi: "T.Jonuzoqov hozirgi paytda shahardagi bosmachilikning tashkilotchisi sifatida o'z atrofiga barcha tog'lik manaplar (boylar)ni to'plagan hamda tog' va vodiylar aholisini milliy g'oya (platforma) asosida birlashtirishga intilmoqda. Jonuzoqov tog'lik aholi o'rtasida katta nufuzga ega... Jonuzoqov o'zining Yetisuv qirg'izlarining vakili sifatida e'lon qilib, yaqinda Angliya bizga qurolli yordam beradi,

Afg'oniston "bosmachilik" bilan ittifoq tuzadi, deb va'da bermoqda"[8].

T.Jonuzoqov Samarqandda o'tgan Turkiston Milliy Birligi 6-kongressini (1921-yil 5 - 7 sentabr) tayyorlash va o'tkazishda faol ishtirok etdi. Farg'ona qo'rboshilari huzurida bir yilcha bo'lgan T.Jonuzoqov o'z faoliyati haqida kongressda hisobot berdi. T.Jonuzoqov hisobotida ba'zi qo'rboshilar o'rtasidagi tarqoqlik va kelishmovchilik holatlarini tugatish, harakat ishtirokchilari orasida milliy ruhni kuchaytirish lozimligi haqida ham to'xtalib o'tgan va bu xususda o'z fikr-mulohazalarini bildirgan. Validiy va Munavvar Qori bilan birgalikda u Turkiston Milliy Birligi tashkilotining bayrog'ini tayyorladi. Biroq qo'zg'olonchilar o'rtasida juda katta tashkilotchilik ishlarini olib borgan T.Jonuzoqov keyinchalik qizil askarlar qo'liga tushib qoladi. Qo'rboshilar guruhlar T.Jonuzoqovni ozod qilish uchun qizil askar otryadlariga hujum qilganda u soqchi tomonidan otib o'ldirildi. Bu mash'um hodisa 1921-yil 18-noyabrda Farg'ona vodiysida yuz berdi.

Ahmad Zaki Validiy To'g'on umrining oxirida yozgan "Xotiralar" kitobining "Samarqand bosmachilari" nomli faslida Ochilbek va Bahrombek qo'rboshilardan tashqari bu davrda viloyat hududida faoliyat ko'rsatgan Qoraqulbek, Hoji Abdulqodir, Niyozbek, Turobbek, Mulla Hamroqul, Xolbo'tabek qo'rboshilar haqida quyidagi ma'lumotlarni keltirib o'tadi:

"Samarqand shahri g'arbida, Kattaqo'rg'on tevaragida Qoraqulbek 500 kishilik qarluq yigitlari bilan Zarafshonning janubrog'idagi tog' oralarini to'liq o'z nazorati ostiga olgan edi. Buxorodan kelgan ziyolilarning ko'pchiligi unga qo'shildi. Jom atrofidan Oqboshbek ismli bir kishi ham unga bo'ysundi. U saroy urug'idan edi, uning yuzga yaqin odami bo'lgan. U tabiatan axloqi komil dadil bir zot edi. Bular o'zlarining harakatlarini Bahrombek bilan kelishgan holda amalga oshirishardi.

Urgut tojiklaridan Hoji Abdulqodir ismli kishi ham bor edi. U rus tilini bilardi, sovet hokimiyatiga ham xizmat qilgan, o'ktam fikrli bir inson. U do'sti muallim Shakuriy bilan birga Urgutda yashirin tarzda harbiy guruh tuzdi, u yerdagi rus garnizonini bosib, qurollarini tortib olishgach, toqqa chiqib ketdilar. Qadimgi forsiy hamda turkiy adabiyotni juda yaxshi ko'radi. Lekin ikkilanadigan odati bo'lganligi uchun ko'p ham askarlarining qadriga yetavermasdi...

Shuningdek, Jizzaxning Nurota tomonlaridagi tog'larda yashagan tojiklardan Mulla Hamroqul ham ish olib bordi. U Qo'ytosh degan joyni makon tutdi. SHE'riyat bilan ham juda qiziquvchi ziyoli bir inson edi. Jamiyat raisi ekanligim tufayli mening ixtiyorimda bo'ldi. Qizilqum orqali Sirdaryo va Xiva tomonlar bilan aloqalarimizni shu Hamroqulning odamlari ta'minlab turdilar. Uning tirishqoqligi tufayli aylanib kelib turardim. Shuningdek, Hamroqul ixtiyorida O'ksun yaqinidagi tojiklardan Muhammad Yashar mulla, Oqtepa o'zbeklaridan Qoraqul mulla bor edi. Bular o'sha tomonning izzat-ikromli odamlari edilar. Qoraqul mulla tarixdan yaxshi xabardor bo'lgan. Qo'ytosh tog'larida Hamroqul egalik qilgan tog' oraliq'i qadimiy turk dostonlarida Ergenekun nomi bilan atalardi. Toliqqan otlarimizni o'sha yerga olib borib, dam berib boqitirardik. Men bu yerga bir necha marta kelib ketdim. Mahalliy o'zbeklar qadimiy dala hayoti urf-odatlariga sodiq qolgan, ularning tili ham sofligini yo'qotmagan. Xotin-xalajlari dadil, qimtinib, begona nigohlardan qochib, pisib yurishmaydi. Xalq og'zaki adabiyoti ham yaxshi saqlangan. Lekin shu paytgacha hali hech kim yozib olib, nashr qilmagan. Bu voqealardan keyin Toshkent maorif idorasi bu yerda yashagan dostonchi Ergash Jumanbulbulni topib, ayrim dostonlarni yozib olib nashr etdi.

Samarqand va Farg'ona o'rtasidagi O'ratepa atrofidagi tog'lar Xolbo'tabek degan bir qo'rboshining qo'lida bo'ldi, 500 ga yaqin yigiti bor edi. Haqiqiy botir, ruslarga qarshi bo'lgan bir vatanparvar. Yigitlari va yaqinlari uni juda aqlli, tadbirkor, istiqbolni ko'rib ish qiladigan, dunyo ahvolidi tushunadigan inson sifatida qadrlar edilar, uning bir yordamchisi bo'lib, moliyaviy ishlar bilan shug'ullanardi, chamasi yuz urug'idan edi"[9].

Ahmad Zaki Validiy Samarqand qo'rboshilari va "bosmachilari" haqidagi o'z mulohazalarini quyidagi fikr bilan yakunlaydi: "Ruslar bosmachilarning hammalarini eski talovchi, bosqinchi deb hisoblashadi. Lekin Samarqand viloyatidagi

bosmachilarning ko'pchilik rahbarlari Vataniga sodiq, fidoyi, dunyo ahvolidan voqif kishilar edilar"[10].

Turkiyalik tadqiqotchi Ali Bodomchining qo'rboshilar xotiralari hamda Adana shahrida saqlanayotgan qo'rboshilar arxivi ma'lumotlariga tayanib, o'z kitobining "Sharqiy Buxoro va Samarqand-Zarafshon qo'rboshilari" qismida yozishicha, Mulla Hamroqulbek boshida 100 nafar yigit bilan faoliyatini boshlab, keyinchalik ularning miqdorini 1000 nafardan ham oshirgan. Mulla Tog'ay, Mulla Mustafo, Xizirbek, Mallaboy Xudoyor, Mulla Dehqon, Muhammad ismli yigitlar Mulla Hamroqulning mintaqa qo'rboshilari edi. Bular Ingichka qasabasi (posyolkasi) va uning atroflarida hokimlik qilganlar. Bundan tashqari Yangiqo'rg'onda Hamro qo'rboshi, Mo'ytanlida Jo'rabek, Oqtepada Mulla Qoraqul, SHo'rchada Muhammadqul Eshon kabilar boshqa mintaqa qo'rboshilari edilar[11].

"Xolbo'tabek qo'rboshi Samarqand, Farg'ona, Buxoro hududlarini bog'lab turgan O'ratepa va uning atrofi tog'laridagi yigitlarning qo'mondoni edi. Uning 500 nafarga yaqin yigitlari bo'lib, u juda jasur qo'rboshi bo'lgan. Saidmurod va Mulla Mustafo uning maslahatchilari edi.

Nusratshoh qo'rboshi esa Hamidbek, Abdumajidbek, Said Akramxon, Asrorxon kabi yigitlari bilan butun Matchoda hokim edilar. Hammasi munavvar edilar va ularning taxminan 2000 nafarga yaqin askarlari bo'lgan"[12].

1923-yil 10-mayda Kitob atrofida qizil askarlar bilan bo'lgan janglarning birida Samarqand istiqlochlilarining yetakchisi Ochilbek qo'rboshi mardlarcha halok bo'ldi[13]. Uning

o'g'li Davron Ochil (1906-yil tug'ilgan) otasi vafotidan so'ng xorijga chiqib ketgan. Ochilbek qo'rboshining o'limi arxiv hujjatlarida quyidagicha tasvirlanadi: "Qarshi viloyatiga kelib, Kitob shahridan 20 chaqirim sharqdagi Varganza (Vag'anzi) qishlog'ida o'rnatilgan Ochilbek guruhi bilan qizil askarlar o'rtasida 1923-yil 9-mayda tengsiz olishuv bo'ldi. 10 maydagi ma'lumotlarga qaraganda Ochilbek guruhi Kitob atrofidagi muvaffaqiyatsiz jangda o'z bayrog'ini yo'qotib va bir necha o'liklarni, shu jumladan, Ochilbekni ham qoldirib, Taxta Qoracha dovoni orqali Qaynar Buloq yo'lidan Samarqand viloyatiga jo'nab ketishdi. Ochilbekning o'limidan so'ng 130 yigitdan iborat guruhga Ziyovuddin boshchilik qila boshladi"[14]. Keyinchalik bu guruhga Hamroqulbek qo'rboshi rahbarlik qilgan[15].

Xulosa va takliflar. Shunday qilib aytganda, Ahmad Zaki Validiy 1921–1923 yillarda Buxoro, Karmana, Jizzax, Samarqand, Toshkent atroflarida bo'lib, qizil armiyaga qarshi kurashayotgan istiqlochlilarni yagona jabhada birlashtirish uchun katta ishlarni qildi. Buxoroda 1921-yil avgustda tashkil qilingan "Turkiston Milliy Birligi" tashkiloti bunda muhim rol o'ynadi. Validiy tomonidan Buxoro Xalq Sovet Respublikasi, Farg'ona vodiysi va Samarqand viloyatidagi istiqlochlilar huzuriga siyosiy maslahatchilar sifatida yuborilgan jadid ziyolilari va demokratik kuchlar qo'rboshilar guruhlarini jipslashtirishga, dushmanga qarshi shafqatsiz kurashda ularning jangovarlik ruhini ko'tarishga, xalqimizni bolshevizmning soxta yolg'onlari va sovet davlatining quruq va dalariga ishonmaslikka chaqirdi.

ADABIYOTLAR

1. Раджабов К.К. Истиклолчилик ҳаракати в Ферганской долине: сущность и основные этапы развития (1918–1924 гг.). Автореф. дисс. ... канд. ист. наук. – Ташкент, 1995. – С. 20–21.
2. Zeki Velidi Togan. Natiralar... 2-baski. – S. 330–337.
3. Ражабов Қ.К. Туркистон қўрбошилари. – Тошкент: Фан, 2022. – Б. 298–304.
4. Zeki Velidi Togan. Natiralar... 2-baski. – S. 326–328.
5. Туркияда кейинчалик Валидий билан Парпибек хожи учрашади. "Кечган умри аклли бир қахрамон тўғрисида дoston бўларлик даражада мазмундор", – деб таъкидлайди у ҳақда Валидий.
6. Қаранг: Zeki Velidi Togan. Natiralar... 2-baski. – S. 339–354.
7. Ражабов Қ. Туркистон қўрбошилари. – Б. 289–292.
8. Аҳмад Заки Валидий Тўғон. Хотиралар. Туркистонда мустақиллик ва озодлик учун курашлар тарихи. Таржимон, илмий таҳрир муаллифи ва нашрга тайёрловчи М.Абдурахмонов. – Тошкент: "Истиклол нури", 2014. – Б. 350–352.
9. Аҳмад Заки Валидий Тўғон. Хотиралар. Туркистонда мустақиллик ва озодлик учун курашлар тарихи. – Б. 378–379.
10. Zeki Validi Togan. Natiralar. – S. 354; Аҳмад Заки Валидий Тўғон. Хотиралар. Туркистонда мустақиллик ва озодлик учун курашлар тарихи. – Б. 379.
11. Ali Bademci. 1917-1934. Turkistam Milli Istiklal Hareketi ve Enver Paca. Korbasilar. – Istanbul, 1975. 1-cilt. – S. 502–504.
12. Ali Bademci. 1917-1934. Turkistam Milli Istiklal Hareketi ve Enver Paca. Korbasilar. – Istanbul, 1975. 1-cilt. – S. 504.
13. Ражабов Қ. Бухорога кизил армия босқини ва унга қарши кураш. –Б. 132; Ўша муаллиф. Самарқанд қўрбошилари. – Тошкент: Фан, 2025. – Б. 280–282.
14. Ўзбекистон Миллий архиви, 48-фонд, 1-рўйхат, 171-иш, 117-варак.
15. Тожибоев Б.М. Самарқанд вилоятида совет режимига қарши қурулган ҳаракат (1918–1926 й.). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Андижон, 2019. – Б.110–117.